

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

UMIDULLAYEV QAHRAMON USMANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILY-HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 342 (575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor (DSc)

Umidullayev Qahramon Usmanovich

О‘zbekistonda ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

Умидуллаев Қаҳрамон Усманович

Совершенствование организационно-правовых основ оценки эффективности деятельности органов исполнительной власти в Узбекистане.....29

Umidullayev Kakhramon Usmanovich

Improving organizational and legal basis for assessing the effectiveness of the activity of executive authorities of Uzbekistan57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

UMIDULLAYEV QAHRAMON USMANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILY-HUQUQIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Yu175 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayiti (e-mail: info@mgjxu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:

Toshqulov Djuraboy O‘rinboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Davron Kuvonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Malikova Gulchexra Rixsixodjayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Ismailova Gulnoza Saydiganixodjayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+998971) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-50, e-mail: info@mgjxu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+99871) 230-32-71; faks: (+99871) 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

M.X. Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

J.D. Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Sh.X. Zulfiqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar sharoitida davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash boshqaruvda yangi, istiqbolli va samarali texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqib, ilg‘or xalqaro tajribalar asosida isloh qilish, jarayonlarni samarali boshqarishga qodir apparatga aylantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ko‘plab davlatlarni qamrab olgan hozirgi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy inqiroz ilmiy jamoatchilik va amaliyotchilar oldiga davlat boshqaruvi organlari, xususan ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash bilan bog‘liq muhim vazifalar qo‘ymoqda. Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash masalalari zamonaviy, o‘zgarishlarga tez va samarali moslashuvchan tizimni talab qilmoqda. Ma‘muriy islohotlarning asosini “Natijadorlikka qaratilgan boshqaruv”¹ kabi xususiy sektorni boshqarish texnologiyalaridan davlat boshqaruvi organlari faoliyatini samarali tashkil etishda foydalanilmoqda. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini mezonlar asosida reyting tizimida baholash ularning faoliyati samaradorligini ta‘minlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi joriy etilgan deyarli barcha davlatlarda olimlar va amaliyotchilar tomonidan baholash tizimi murakkab tadqiqot mavzularidan biri ekanligi qayd etilmoqda. Xususan, baholash obyekti va ularning funksiyalari ko‘pligi, murakkab tuzilishi, ko‘p sonli omillarni hisobga olish va tahlil qilish zarurligi, baholash jarayonlarini ishonchli ma‘lumotlar bilan ta‘minlashning murakkabligi noto‘g‘ri xulosalarga sabab bo‘lishi mumkinligi, baholash jarayonlarini barcha bosqichlarini to‘liq qamrab olgan yagona mexanizm sifatida ishlaydigan baholash tizimini joriy etishning murakkabligi, noaniq baholash noto‘g‘ri natija va xulosalarga sabab bo‘lishi mumkinligi² va boshqa muammolar mavjud. Baholash tizimi ijro hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi, davlat kadrlar siyosati bilan bog‘liq masalalar, erishilgan natijaga asoslanib haq to‘lash, mamlakatni har tomonlama barqaror rivojlanishini ta‘minlash, aholining hayot darajasi sifatini yaxshilash³ bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etishga xizmat qilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham davlat boshqaruvi organlari, xususan ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholab, erishilgan natijalar yoki yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etishning aniq tartibini joriy etish ayni paytda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va mamlakat taraqqiyotini ta‘minlash borasida dolzarb masala bo‘lib turibdi. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi 21 ta vazirlik, 12 ta qo‘mita, 26 ta agentlik va 9 ta inspeksiyalarning markaziy apparatlari va hududiy

¹ <https://www.aihr>

² <https://www.uchicago.edu>

³ <https://www.law.wustl.edu>

bo'limlarida 53 560 nafar¹ boshqaruv xodimlari faoliyat yuritmoqda. Ularning samarali faoliyati barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi "Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2024-yil 13-martdagi Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-49-son, 2024-yil 19-iyundagi "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-91-son Farmonlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 463-son, 2024-yil 04-oktabrdagi "Rahbar kadrlarni baholash markazini tashkil etish to'g'risida"gi 629-son Qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi qonunchilikni takomillashtirish, tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida dunyodagi yetakchi ilmiy markazlarda hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Washington University School of Law (AQSh), The University of Chicago (AQSh), New York University (AQSh), Brunel University, University of Bristol, University of Leeds, House of Commons Library (Buyuk Britaniya), Queen Mary University of London (Buyuk Britaniya), Durham University, Birkbeck College (Buyuk Britaniya), Université Toulouse (Fransiya), University of Leiden (Niderlandiya), Law School, University of Queensland (Avstraliya), University of Toronto (Kanada), Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi xalq xo'jaligi va davlat xizmati akademiyasi, Moskva davlat universiteti, Qozog'iston Respublikasi

¹ <https://www.gov.uz>

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.harvard.edu>, www.law.stanford.edu, <https://www.bc.edu>, <https://law.ucla.edu>, <https://www.nyu.edu>, <https://www.uchicago.edu>, <https://www.law.wustl.edu>, <https://www.ox.ac.uk>, <https://www.ncl.ac.uk>, <https://commonslibrary.parliament.uk>, <https://www.cam.ac.uk>, <https://www.qmul.ac.uk>, <https://www.uni-frankfurt.de>, <https://www.lmu.de>, <https://www.pantheonsorbonne.fr>, <https://utoronto.ca>, <https://www.griffith.edu.au>, <https://en.uj.edu.pl>, <https://www.msal.ru>, <https://www.msu.ru>, <https://www.mgimo.ru>

Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini baholashdan asosiy maqsad samaradorlikni ta'minlash ekanligi qayd etilgan (The University of Chicago), davlat boshqaruvi organlari faoliyatini baholash natijasida ularning mas'uliyati yaxshilangan, barqarorlik ta'minlangan, taqqoslash imkoniyati vujudga kelgan, intizom yaxshilangan, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish minimallashtirilgan, qisqa muddatda rejalashtirish imkoniyatlari vujudga kelgan, davlat va vakillik organlari o'rtasida hamkorlik yaxshilangan, butun Hukumat faoliyatini taqqoslash imkoniyati yaratilgan, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta'minlangan (University of Toronto), davlat boshqaruvi organlarining dasturiy maqsadlarini belgilash, yil yakuni bilan erishilgan yutuqlar va natijalar to'g'risida hisobot tayyorlashda asosiy e'tibor faoliyat samaradorligini ta'minlash va davlat xizmatchilarining ish haqini ular erishgan yutuq va kamchiliklariga asoslanib belgilashga qaratilgan, davlat xizmatchilarining yuqori ish haqiga ega bo'lishga intilishlari natijasida nafaqat samaradorlik ta'minlangan, shu bilan bir vaqtda davlat boshqaruvi organlari faoliyati takomillashgan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilangan.

Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini mezonlar asosida reyting baholashni tashkil etuvchi hujjatlarda ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida o'z majburiyatlarini bajarmaganlik holatlarida javobgarlik masalasi belgilab qo'yilgan (University of Queensland), ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlarini tanlash, baholash jarayonlarini takomillashtirish, baholash natijasida yuzaga kelgan holatlarga huquqiy baho berish borasida amaliy taklif va tavsiyalar berilgan (Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi xalq xo'jaligi va davlat xizmati akademiyasi). Baholashga vakolatli davlat organlari hamda baholanishi lozim bo'lgan davlat organlari haqida fikr yuritilgan. Baholash yo'nalishlarini belgilab olish, baholangan davlat organlari tomonidan baholash natijalaridan norozi bo'lib qilgan shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi hamda baholash jarayonlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan metodologik takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. (Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi). Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi jahon amaliyotida ham nisbatan yangi tajriba bo'lib, ilmiy va amaliy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu amaliyotni jahon tajribasi asosida o'rganish, uning yutuq va kamchiliklarini ilmiy va amaliy tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi amaliyotida samarali joriy etishga imkon beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur dissertatsiya ishini yozish davomida milliy hamda xorijiy olim va mutaxassislarining mavzuga oid fikr va mulohazalaridan keng foydalanilgan. Xususan, ijro hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha milliy olimlarimizdan F.U.Yuldasheva, G.R.Malikova, G.S.Ismailova, J.O'.Toshqulov, M.A.Axmedshayeva, O.T.Xusanov, X.T.Azizov, Ya.Y.Ollamov, Y.D.Kutibayeva, Z.S.Israilova, Sh.U.Yakubov, Sh.G'.Asadov va boshqalarning ilmiy ishlari o'rganilgan.

Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning tashkiliy va huquqiy asoslari yuzasidan MDH davlatlari olimlaridan A.V.Achkasov,

G.A.Djunusbekova, I.Y.Chazova, K.I.Apkaniyeva, I.Yu.Singizov, N.N.Rozanova, S.K.Mordovin, V.I.Mayorov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Xorijiy olimlardan ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning amaliy va metodologik masalalari bo'yicha D.Osborne, J.Walli, K.Mackay, M.Considine, M.W.Meyer, M.B.Hansen, P.Tracey, Sang Ok Choi, Sung Min Park, S.Goldfinch, T.Gaebler, V.Gupta¹ va boshqa olimlarning tadqiqot ishlari o'rganilgan.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning tashkiliy-huquqiy asoslari nafaqat O'zbekiston, shuningdek xorijiy mamlakatlarning olimlari va amaliyotchilari tomonidan ham kam o'rganilgani, ammo davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini ta'minlashning ushbu usuli rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda joriy qilinayotgani va uning samarali ekanligi e'tirof etilayotgani tadqiqot mavzusining dolzarbligini anglatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvining dolzarb muammolari, davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari tizimini isloh qilish muammolari ilmiy tadqiqotlariga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijro hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligi tushunchasini tahlil qilish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimini tadqiq etish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining turlari va ularning vazifalarini yoritib berish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash metodikasining turlari va vazifalarini yoritib berish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha Kanada tajribasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha Rossiya Federatsiyasi tajribasini tahlil qilish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha Qozog'iston Respublikasi tajribasini o'rganish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari bilan bog'liq xalqaro reyting va indeksni tahlil qilish;

¹ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi muammolarni aniqlash;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash mexanizmlari yoritib berish;

ijro hokimiyati organlari rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi muammolarning tashkiliy-huquqiy yechimlari borasida takliflar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashga oid fikrlar, amaliyot, xalqaro huquqiy, milliy va xorijiy qonun hujjatlari, konseptual va ilmiy-amaliy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni bajarish jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik, kompleks yondashuv, ijtimoiy so'rov, mantiqiy tahlil, huquqiy fanlar uchun umumiy bo'lgan qiyosiy-huquqiy tahlil hamda tadqiqot olib borishning boshqa usullaridan foydalanilgan.

Dissertant tomonidan tadqiqot ishi yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijasidan foydalanish dissertatsiya tadqiqotining ilmiy hamda amaliy ahamiyatini, ishonchliligini va asoslilikini ta'minlashga imkon bergan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi maxsus vakolatli davlat organi sifatida davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha uslubiyat ishlab chiqishi baholash jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qilishi isbotlangan;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash va natijalari yuzasidan ochiq reyting shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi isbotlab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish hamda lavozim bo'yicha o'sishida ularning faoliyati samaradorligini baholash natijasi asos bo'lishi davlat kadrlar siyosatini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash jarayonlarida tegishli davlat organiga ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z ichki tartibini belgilash bo'yicha vakolat berish har bir davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini aniq baholashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

davlat fuqarolik xizmatchilarining bilimi, ko'nikmasi va malakasini oshirishda ularning kasbiy kompetensiyalari hamda faoliyati samaradorligini

baholash natijalariga asoslanish har bir davlat fuqarolik xizmatchisining malakasini oshirish bo'yicha aniq qaror qabul qilishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyasi darajasi, ko'nikmasi va malakasini baholashda inson omili aralashuvini oldini olish uchun baholash jarayonlarini axborotlashtirish adolatni, aniqlikni, xolislikni, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bob, 120-moddasini "Mahalliy davlat hokimiyati organlari joylardagi muammolarni hudud aholisi bilan kelishgan holda hal qilishi kafolatlanadi" – degan yangi norma bilan to'ldirish joylardagi nizoli muammolarning samarali yechim topishiga xizmat qilishi asoslantirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunining 12-moddasini "Davlat fuqarolik xizmatchisi samarali faoliyat yuritishi shart" degan yangi norma bilan to'ldirish davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash amaliyoti o'rganilib, baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida o'rganilib, uning natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini reyting baholash amaliyoti mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashi asoslab berilgan;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tartibini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning borishini kuzatishni osonlashtirishga, jarayonlarning ochiqligini va shaffoflikni ta'minlashga hamda aniq xulosalar qilishga amaliy zamin yaratgan;

barcha darajadagi ijro hokimiyati organlari va ularning rahbarlari faoliyati samaradorligini kompleks baholash yanada samarali bo'lishi, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashi asoslab berilgan;

ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash asosida ish haqi xarajatlarini erishilgan natijaga asoslanib taqsimlashga erishish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishda qo'llanilgan usullar, foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlar milliy hamda xalqaro rasmiy ilmiy manbalardan olingan, rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchiligi va tajribasi sohaga oid qonunchilik va milliy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilingan, tadqiqot natijasi bo'yicha xulosalarda amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan va ular tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan, dissertatsiya ishi yuzasidan ikkita monografiya nashr etilgan, qaror va amaliy grant

loyihasi tayyorlangan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy hamda xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholashning tashkiliy, huquqiy va amaliy asoslarini takomillashtirishda hamda ushbu sohaga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishda, davlat boshqaruvi organlari uchun uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda hamda ma'muriy huquq, konstitutsiyaviy huquq va boshqa fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi maxsus vakolatli davlat organi sifatida davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha uslubiyat ishlab chiqishi baholash jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni 36-moddasining ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 06-13/3-son dalolatnomasi). Ushbu taklif sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi sifati va natijadorligini ta'minlashga hamda davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholash jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash va natijalari yuzasidan ochiq reyting shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonunining 8-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 06-13/3-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini samarali baholashga xizmat qilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish hamda lavozim bo'yicha o'sishida ularning faoliyati samaradorligini baholash natijasi asos bo'lishi davlat kadrlar siyosatini takomillashtirishga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni 36-moddasining birinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 06-13/3-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash hamda ularning erishgan yutuqlarga asoslanib lavozim bo'yicha ko'tarilishning yangi tartibini joriy etishga xizmat qilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash

jarayonlarida tegishli davlat organiga ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z ichki tartibini belgilash bo'yicha vakolat berish har bir davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini aniq baholashga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni 36-moddasining birinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasining 2023-yil 19-yanvardagi 06-13/3-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirishga hamda aniq va asosli baholashga xizmat qilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining bilimi, ko'nikmasi va malakasini oshirishda ularning kasbiy kompetensiyalari hamda faoliyati samaradorligini baholash natijalariga asoslanish har bir davlat fuqarolik xizmatchisining malakasini oshirish bo'yicha aniq qaror qabul qilishga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni 42-moddasining birinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 13-martdagi №3/dn-54-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlat fuqarolik xizmatchilarining aynan qaysi sohada malakasi oshirilishi lozimligini aniqlab olishga hamda ularning bilimi va ko'nikmasini aniq va maqsadli oshirishga xizmat qilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyasi darajasi, ko'nikmasi va malakasini baholashda inson omili aralashuvini oldini olish uchun baholash jarayonlarini axborotlashtirish adolatni, aniqlikni, xolislikni, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni 42-moddasining ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 13-martdagi №3/dn-54-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyasi bilimi, ko'nikmasi va malakasini baholashda aniqlikni, xolislikni, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, xususan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 36 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya va 34 ta ilmiy maqola va tezislar (ulardan ilmiy jurnallarida 17 ta maqola, 8 ta xorijiy nashrlarda va 9 ta respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 245 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti hamda predmeti, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslantirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashning ilmiy metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida baholash, samaradorlik, ko‘rsatkich, mezon va metodika kabi tushunchalarning mazmuni yoritib berilgan. Mavzu yuzasidan J.O‘.Toshqulov, I.A.Tixomirov, I.Yu.Chazova, Ye.A.Kapoguzov, S.K.Mordovin, D.Osborne, T.Gaebler va boshqalarning mavzuga oid ishlari tahlil qilingan.

Hozirda ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash davlat boshqaruvi faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Dissertantning fikriga ko‘ra, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini isloh qilishning hozirgi bosqichi ijro hokimiyati organlaridan “avtomatik rejimda” ishlashni, boshqaruv xarajatlarini aniq hisobini yuritishni talab qilmoqda. Baholash tizimining katta qiziqishga sabab bo‘layotgani – bu baholanayotgan organlar faoliyati samaradorligini ta‘minlash bilan birga ularning faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni va natijadorlikka asoslangan boshqaruvni ta‘minlash imkoniyatining mavjudligidir. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash deganda, ularning faoliyatiga tegishli vazifalarni bir nechta mezonlarga aylantirish va ular asosida kuzatib borish tushuniladi.

Ma‘lumki, ijro hokimiyati organlari mamlakat taraqqiyotini ta‘minlashda asosiy vazifalarni bajaradi. Ijro hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligi tizimda ishning to‘g‘ri tashkil etilishiga, bajarilgan ishlarning hisobi aniq yuritilishiga hamda erishilgan natijaga sarflangan resursning miqdoriga bog‘liq. Ijro hokimiyati organlari faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ham anglatadi. Samaradorlikni baholashdan asosiy maqsad ijro hokimiyati organlariga yuklatilgan vazifalarni qay darajada bajarayotganligini aniqlash, ushbu organlar faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorlikni ta‘minlashdan qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash davlat boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yangi amaliyot bo‘lib, baholashdan maqsad sohaga oid ilmiy bilimlar va amaliyotni davlat va jamiyatning ehtiyojlari va manfaatlari yo‘lida samarali birlashtirishdan iborat.

Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash ustuvor vazifalarni aniqlash, boshqaruvni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini shakllantirish, rivojlanish va istiqbol yo‘llarini tanlash hamda

qator muammolarni samarali hal etishga imkon beradi. Baholash turli darajalarda o'tkazilishi mumkin.

1. Yuqori darajada – ya'ni davlat darajasida muhim bo'lgan sohalar, strategik reja va maqsadlarni hal etishga qaratilgan islohotlar natijasi baholanadi. Misol uchun, barqaror rivojlanish, markaziy davlat organlarining hisobdorligi, faoliyatining ochiqligi, qonun ustuvorligi ta'minlanganligi, jinoyatchilikka qarshi kurash, kambag'allikka barham berish borasidagi ishlar natijalari baholanadi.

2. O'rta darajada – vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, viloyatlar ularga yuklatilgan vazifalarning natijasi, bajarilishi darajasi baholanadi.

3. Quyi darajada – hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar baholanadi.

4. Barcha darajadagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilish darajasi bo'yicha baholanadi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligini uchta guruhga: ya'ni, rahbarlar, rahbar o'rinbosarlari va xodimlar bo'yicha alohida baholash amaliyoti mavjud.

Dissertantning fikriga ko'ra, ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash – bu ushbu organlar faoliyatini yanada takomillashtirish, ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi samaradorligini yanada yaxshilash, faoliyati natijadorligini ta'minlash maqsadida baholash mezonlarini belgilab olish, ko'rsatkichlar asosida muntazam kuzatib borish hamda ularning mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini aniqlashdir.

Baholashdan maqsad ijro hokimiyati organlari faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga asoslangan holda samarali qarorlar qabul qilish hisoblanadi. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash ushbu organlarga yuklatilgan vazifalar, maqsadlarning milliy manfaatlarga qay darajada mos kelishini, o'z funksiyalari va vakolatlarini bajarishda qanday kurashayotganligini aniqlashga imkon beradi. Baholashning amaliy jihati shundan iboratki, olingan tahliliy ma'lumotlar asosida boshqaruvni takomillashtirish, maqsadli dasturlarni amalga oshirish, davlat xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash muayyan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Baholash mezonlarini to'g'ri tanlash baholash amaliyotining eng muhim jihatlaridan biridir. Baholash mezonlarini aniq belgilash ushbu organlar faoliyatiga xolis va asosli baho berishga xizmat qiladi. Mezon obyekt yoki hodisani tavsiflash uchun asos, noaniqliklarni bartaraf etish, muammoni hal qilish, soddalashtirilgan yechim orqali qo'shimcha ma'lumot olish vositasi.

Baholashning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu baholash ko'rsatkichlaridir. Baholash ko'rsatkichlari baholash mezonlaridan alohida bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Ko'rsatkich o'lchanadigan xususiyatga ega bo'lgan, obyekt holatining o'zgarishini kuzatib borishga mo'ljallangan va uni bevosita tadqiq yoki tahlil qilish imkonini beruvchi, ma'lum bir miqdor, qiymat yoki sifatni aniqlash uchun mo'ljallangan texnik vosita.

Ko'rsatkichlar ijro hokimiyati organlari faoliyati natijasi haqida axborot olish va ma'lumotga ega bo'lishning qulay vositasi hisoblanadi. Ko'rsatkichlarni umumiy ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlarni kuzatib borish va ularni o'lchash vositalari deb aytilish mumkin. Hozirda ko'pgina davlatlarda

samaradorlikni o'lchash vositasi sifatida KPI (Key performance indicator) – “Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari”dan foydalanilmoqda.

Baholashning asosiy talablaridan yana biri – bu baholash uchun har tomonlama qulay bo'lgan, ilmiy va amaliy asoslangan baholash metodikasidir.

Metodika o'rganilayotgan obyektning mohiyatini aniqlashning umumnazariy talablar tizimi, bilishning muayyan usullari va talablari asosida obyektga tegishli ma'lumotlarni jamlash, ularni mantiqiy tahlil qilish, mohiyatini aniqlash va xulosa chiqarish vositasidir.

Zamonaviy boshqaruvda faoliyatni tahlil qilishning turli metodologiyalari mavjud. Tadqiqot usuli sifatida metodika natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmi. Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasi – bu faoliyat natijasini ko'rsatib beruvchi tadqiqot vositasidir.

Metodologiya metodlar yig'indisi haqidagi ta'limot bo'lib, turli maqsadli harakatlarni amalga oshirish uchun tayyor formula, tadqiqot muammolarini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar, ishda foydalanilgan materiallar tavsifi. Metodologiya keng tushuncha bo'lib, undan istalgan sohada foydalanish mumkin. Metod tadqiqotning zaruriy sharti bo'lib, uning samaradorligi nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. Faoliyat turi va mazmuni kengayishi bilan metodlar chuqurlashib, tajribaga tatbiq etishning ko'lami ham kengayib, o'zgarib boradi. Noto'g'ri metodologiya ko'zlangan maqsadlarga erishishga imkon bermaydi.

Dissertantning fikriga ko'ra, ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash metodikasi – bu ushbu organlar faoliyatiga tegishli statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish va natijalarni baholash vositasidir. Baholash mezonlari va metodikasi islohotlarning aholi turmush darajasida aks etishini ko'rsatishi, barcha baholanayotgan obyektlarning holatini aniq monitoring qilinishini ta'minlashi, muammolar yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qilishi lozim.

Samaradorlikni baholash metodikasi baholanayotgan organning barcha sohalarini qamrab olishi, maqsadlarga erishilganlik darajasini ko'rsatishi, byudjet xarajatlarining tejamkorligini ta'minlashi, qiyosiy tahlil qilish imkoniyati hamda nomutanosibliklar va muammolarni aniqlashga imkon berishi, shu bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy va texnik samaradorlikni xolisona baholashi kerak.

Ijro hokimiyati organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash bir-biri bilan uslubiy, amaliy va metodik jihatdan uzviy bog'lanishi, baholash tizimi yagona mexanizm sifatida ishlashi kerak. Baholash usullarini tanlash jarayonida vakolatli davlat organlari faoliyati o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Baholash tizimi davlat organlari va xizmatchilarining ko'rsatkichlar uchun ishlashga emas, amaliy natija, asosiy strategik maqsadlarga erishishni ta'minlashi, nafaqat mehnat unumdorligini, shu bilan bir qatorda mehnat intizomini ta'minlashi va boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qilishi kerak.

Dissertatsiyaning **“Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi”** deb nomlangan

ikkinchi bobida ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha Kanada, Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog'iston Respublikasi tajribasi haqida so'z yuritilgan. Ushbu bobda A.A.Akayev, V.N.Sokolov, G.Suleimenova, G.Djunusbekova, D.Kulumbetova, M.Considine, P.Tracey, J.Walli, M.B.Hansen va boshqa olimlarning mavzuga oid ishlari o'rganib tahlil qilingan.

Davlat boshqaruvi organlari, xususan, ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash amaliyoti eng yaxshi yo'lga qo'yilgan davlatlardan biri Kanadadir. Kanada "Boshqaruvda hisobdorlik tizimi" (Management accountability framework MAF) – ko'plab davlatlarda davlat hokimiyati organlari va xizmatchilari faoliyatini baholashni joriy etishda metodologik asos bo'lgan. MAF – bu zamonaviy fuqarolik xizmatini ilgari surish vositasi bo'lib, u orqali xizmatlar fuqarolarga yo'naltirilgan. Kanada baholash tizimining afzalliklari quyidagilar hisoblanadi.

Birinchiidan, baholash jarayonlari bevosita Yashirin Kengash (Privy Council Office), Kanada davlat xizmatlarini boshqarish bo'yicha maslahat qo'mitasi (Public Service Management Advisory Committee (PSMAC)) hamda G'aznachilik Kengashi kotibiyati (TBS) tomonidan o'zaro hamkorlikda olib boriladi. Bu nafaqat baholash jarayonlarini samarali tashkil etishga, shu bilan bir vaqtda davlat organlari hamda xizmatchilari faoliyatini asosli va adolatli moliyalashtirishga, mehnat natijalariga asoslanib haq to'lash tartibini takomillashtirishga, samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirishga xizmat qilgan.

Ikkinchiidan, baholash jarayonlarini tashkil etishda avtomatlashtirishga, inson omili aralashuvini minimallashtirishga e'tibor qaratilgan. Bu baholash tizimining obyektivligini hamda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Uchinchiidan, davlat boshqaruvi organlari va xizmatchilarining hisobdorligi va ochiqlik ta'minlangan, hisobot berish va ma'lumot almashish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu baholash jarayonlarida axborot to'plash va baholash jarayonlarini samarali tashkil etishda amaliy zamin yaratgan.

To'rtinchiidan, baholovchi va baholanuvchi davlat organlari hamda jamoatchilik tashkilotlari o'rtasida baholashga asos bo'luvchi ma'lumotlarni tezkor almashish hamda hisobdorlik tizimi samarali yo'lga qo'yilgan. Bu baholash jarayonlarini tashkil etishni osonlashtirishga xizmat qilgan.

Beshinchiidan, davlat boshqaruvi organlari, davlat xizmatchilari faoliyatini baholashning uzluksizligi hamda ularning erishgan yutuqlari yoki kamchiliklarga asoslanib haq to'lash, mukofotlash, boshqa ishga o'tkazish va kadrlar bilan ishlash tizimining bir-biri bilan bog'liqligi hamda uzviyligi ta'minlangan.

Yuqoridagilar Kanadada davlat boshqaruvi organlari va xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilganligini, baholash tizimidan ko'zlangan maqsadlarga erishilganligini anglatadi.

Rossiya Federatsiyasida "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jamg'armasi" tomonidan davlat boshqaruvi organlari faoliyati har chorakda reyting asosida baholab boriladi. Rossiya Federatsiyasi davlat organlari

faoliyatini baholash tizimining yutuqlaridan biri – bu baholash jarayonlarida asosiy e'tibor jamoatchilik ishtirokini ta'minlashga qaratilganligidir.

Rossiya Federatsiyasida fuqarolarning fikrlarini to'plash ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash so'rovi bilan davlat xizmatlari oluvchilarga SMS xabarlarini yuborish, to'g'ridan-to'g'ri davlat xizmatlarini taqdim etish joylarida o'rnatilgan elektron terminallar orqali so'rov, internetdagi maxsus manba orqali so'rov orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullar baholash jarayonlarida aholi ishtirokini ta'minlashni osonlashtirishga, aynan davlat xizmatlari ko'rsatuvchilar va davlat xizmatlarini oluvchilar o'rtasidagi amaliy jarayon natijalari bo'yicha fikr bildirish imkoniyatini ta'minlaydi. Ushbu jarayonlar ortiqcha xarajat talab qilmasligi, asosiysi shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Samaradorlikni baholash bo'yicha Rossiya Federatsiyasi tajribasidan baholash mezonlarning ko'p bo'lishi hisoblashda chalkashliklarga va murakkabliklarga sabab bo'lishi bilan birga umumdavlat miqyosida samaradorlikka kam erishish holati kuzatilganini ko'rish mumkin. Baholash tizimini takomillashtirish jarayonida baholash mezonlarining eng muhimlari, shu bilan bir vaqtda, imkon qadar barcha sohani qamrab olingani natijasida barcha sohalarda o'sish kuzatilgan. Rossiya Federatsiyasida davlat fuqarolik xizmatchilarining vazifasi bo'yicha o'sishi, boshqa ishga o'tishi, past ko'rsatkichlar uchun javobgarlik, umuman kadrlar masalasi bo'yicha tegishli qaror qabul qilishda ularning faoliyatini baholash bo'yicha ko'rsatkichlari natijalari inobatga olinadi.

Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash tizimi samarali yo'lga qo'yilgan davlatlardan yana biri Qozog'iston Respublikasida Jahon banki tadqiqotlari natijalari va takliflari asosida davlat boshqaruvi organlari va xizmatchilari faoliyatini baholash tizimi yo'lga qo'yilgan. "Davlat boshqaruvi islohoti "Qozog'iston-2030" Strategiyasida belgilangan "Asosiy funksiyalar bilan chegaralangan professional davlat" – "Asosiy vazifalarga jamlangan tejamkor va professional Hukumat" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Qozog'iston Respublikasining baholash metodikasi xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari asosida ishlab chiqilgan. Xalqaro amaliyotda qo'llanilgan bir qator yondashuvlar Qozog'iston davlat boshqaruvi organlari xususiyatlaridan kelib chiqib, moslashtirilgan, davlat boshqaruviga mos ravishda takomillashtirilgan hamda baholash tizimi ma'lum darajada rivojlantirgan. Qozog'iston Respublikasida davlat organlari faoliyatini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – ma'lumotlarni yig'ish. Bu bosqichda baholashga mas'ul bo'lgan davlat organlari tomonidan hisobot va ma'lumotlar yig'ib olinadi.

Ikkinchi bosqich – davlat organlari bo'yicha baholash. Bu bosqichda baholovchi davlat organlari yo'nalishlar bo'yicha har bir davlat organlarini ball bilan yakuniy baholashni tashkil etadi.

Uchinchi bosqich – yuborish va shikoyatlar. Bu bosqichda baholash yakunlari bo'yicha ma'lumotlar tegishli davlat organlariga yuboriladi. Ularning olgan ballari yuzasidan qilgan norozilik shikoyatlari o'rganiladi.

To'rtinchi bosqich – bo'limlar bo'yicha ekspert xulosasi. Bu bosqichda Prezident administratsiyasi natijalarni jamlab, bloklar bo'yicha ekspert xulosalarini tashkil qiladi. Natijalarni baholash komissiyasi ko'rib chiqadi.

Beshinchi bosqich – baholash natijalari tasdiqlanadi. Bu bosqichda baholash natijalari ko'rib chiqish uchun davlat rahbariga kiritiladi. Natijalar jamoatchilik uchun nashr qilinadi.

Qozog'iston Respublikasida baholash tizimida barcha markaziy davlat va mahalliy hokimiyat organlari qamrab olingan. Ammo baholanmaydigan davlat organlari ham mavjud. Misol uchun, Respublika byudjeti ijrosini nazorat qiluvchi Hisob qo'mitasining faoliyati baholanmaydi. Qozog'iston Respublikasi davlat organlari va xizmatchilari faoliyatini baholash tizimi Kanada MAF baholash tizimiga asoslangan, ammo hech bir davlatning davlat, uning boshqaruv organlari va xizmatchilari faoliyatini baholash tizimi ikkinchi bir davlatga aynan mos tushmasligini unutmazlik lozim.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili”** deb nomlangan. Ushbu bobda G.R.Malikova, Ye.A.Litvinseva, L.A.Chikanova, S.V.Koroleva, F.U.Yuldasheva, Sh.G'.Asadov va boshqa olimlarning ishlari o'rganib tahlil qilingan.

Zamonaviy dunyoda davlatning xalqaro reyting va indekslardagi o'rni muhim hisoblanadi. Mamlakatning ushbu reytinglardagi o'rni uning boshqa davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, investitsiya, tashqi savdo va boshqa muhim sohalarda hamkorlik qilishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Davlatning xalqaro reyting va indekslardagi munosib o'rni mamlakatning xalqaro obro'-e'tiborini ta'minlaydi hamda xorijiy investorlarni jalb qilish va taraqqiyotni ta'minlashda ham muhim hisoblanadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni yaxshilanayotgani kuzatilmoqda. Ammo shu bilan bir qatorda o'rganishlar ayrim xalqaro reytinglarda O'zbekistonning ba'zi ko'rsatkichlari o'z aksini topmayotgani quyi pog'onalarda qolishga sabab bo'layotganini ko'rsatadi. Bu erishilgan yutuqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni xalqaro reyting va indekslarda aks etishini ta'minlash borasida qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan ma'muriy islohotlarda davlat boshqaruvi organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligini yanada yaxshilash, davlat hokimiyati organlari faoliyatining qonuniylik, shaffoflik, xolislik, ishonchlilik, ochiqlik, oshkoralik va hisobdorlikni ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda.

Samarali jamoatchilik nazorati fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat tuzilmalarini takomillashtirish hamda samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, ijro hokimiyati organlari faoliyati boshqa sohalarga qaraganda jamoatchilik tomonidan ko'proq nazorat qilinishini taqozo etadi.

Jamoatchilik nazorati mansabdor shaxslar tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishda yanada mas'uliyat bilan yondashishlarini ta'minlaydi. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy faoliyat sohalarda mahalliychilik,

korrupsiya kabi salbiy omillarga qarshi samarali kurashishda muhim vosita hisoblanadi. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholashda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash baholashning obyektivligini ta'minlashda muhim amaliyot hisoblanadi. Baholashda jamoatchilik institutlarining ishtiroki hisobdorlik bir-birini tiyib turish va muvozanatda saqlash prinsipiga ham mos keladi. Aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish darajasini aniqlash samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash natijalarini ommaviy axborot vositalariga jamoatchilik uchun e'lon qilib borish baholash tizimining shaffofligini ta'minlash bilan birga jamoatchilikning qiziqishiga sabab bo'ladigan institutlardan biri hisoblanadi. Bu baholanayotgan davlat organlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yuzaga kelishiga amaliy zamin yaratadi va bu o'z navbatida davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat organlarining hisobdorligini ta'minlash, jamoatchilikda davlat va uning boshqaruv organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvi organlari va xizmatchilari faoliyatining samaradorligi aholi talablari va ehtiyojlarini qondirish darajasining to'liqligi va sifati bilan belgilanadi. Shu sababli davlat organlari faoliyatini baholashda aholi fikri, hudud aholisining qoniqish darajasi asosiy o'rin tutishi kerak.

Hozirda ko'pgina davlatlarda davlat organlari bilan bir qatorda davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligi ham baholanadi. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash bevosita davlat kadrlar siyosati bilan bog'liq bo'lib, ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillariga asoslanadi.

Baholash natijasida davlat fuqarolik xizmatchilari o'z-o'zidan bajarayotgan ishining natijadorligiga e'tibor qaratishadi. Bu esa baholash tizimidan ko'zlangan maqsadlardan biri hisoblanadi. Baholash kamchiliklarni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf etish hamda aynan qaysi rahbar yoki xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish lozimligini aniq ko'rsatib beradi. Bu orqali ijro hokimiyati organlarida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini ham aniq ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, baholash natijalari asosida ularga aynan nimani o'qitish lozimligi ham ma'lum bo'ladi.

Baholash natijalari asosida har bir rahbar va xodimning erishilgan natijaga qo'shgan hissasini aniqlash mumkin. Bu bilan tizim xodimlarini erishgan yutuqlariga asoslanib, rag'batlantirish yoki yo'l qo'ygan kamchiliklar uchun tegishli choralar ko'rish mumkin bo'ladi. Baholash natijalari har bir davlat fuqarolik xizmatchisining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, ularni qobiliyat va qiziqishlariga asoslangan holda vazifaga tayinlash, vazifalarni xodimlarning qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib taqsimlash mumkin bo'ladi. Bu davlat kadrlar siyosatini takomillashtirish hamda samaradorlikni sezilarli darajada oshishiga amaliy zamin yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi muammolarning tashkiliy-huquqiy yechimlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida baholash borasidagi muammolar tahlil qilingan hamda tegishli qonun hujjatlarini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu bobda A.A.Dugarova,

O.T.Xusanov, Ye.I.Dobrolyubova, V.I.Mayorov, M.W.Meyer, V.Gupta va boshqalarning ishlari o'rganilgan.

Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining samarali amalga oshirilishi bo'yicha "Yo'l xaritasi"da ijro hokimiyati organlarining soni, ularning tuzilmasi va bo'linmalarini optimallashtirish nazarda tutilgan. Xususan, respublika va hududiy ijro hokimiyati organlari o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, shuningdek, kadrlar va moddiy resurslar oqilona taqsimlanishini ta'minlash va boshqa vazifalar belgilangan. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholashning asosiy talablaridan biri – bu baholanayotgan organlar faoliyatiga oid masalalarni maksimal darajada aniqlashtirish, ularga xos bo'lmagan vazifalarni tegishli organlarga o'tkazish yoki qisqartirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash tizimini joriy etishga qaratilgan islohotlar zamonaviy menejment talablari hamda davlat boshqaruvining umume'tirof etilgan talablari asosida olib borilmoqda.

Dissertantning fikriga ko'ra, ijro hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati natijalari bo'yicha mukofotlashda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq;

Birinchidan, ijro hokimiyati organlari rahbarlari faoliyatini baholash metodikasi bevosita rahbar faoliyatining natijasini aniq ko'rsatishini ta'minlash;

Ikkinchidan, baholashda ijtimoiy, iqtisodiy, miqdor va sifat ko'rsatkichlari mutanosibligini ta'minlash;

Uchinchidan, ijro hokimiyati organlarining rahbarlariga ularning faoliyatini baholash natijalariga asoslanib mukofotlash shartlari, muddati va miqdorini qonun hujjatlarida aniq belgilab qo'yilishi lozim.

Olimlar va amaliyotchilar ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash borasida ko'plab ijobiy fikrlar bilan bir qatorda ushbu yangi tizim ayrim kamchiliklardan ham holi emasligi to'g'risida fikr va mulohazalar bildirishmoqda. Ijro hokimiyati organlari, ularning rahbarlari va xodimlari faoliyatini baholash bilan bog'liq bo'lgan har bir fikr va amaliyotni sinchiklab o'rganish, ularni chuqur tahlil qilish kelajakda ushbu tizimni joriy etish jarayonida duch kelgan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etishga yoki duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olishga, ortiqcha vaqt va xarajatlarni kamaytirishga hamda baholash tizimini samarali tashkil etishga ilmiy va amaliy zamin yaratadi.

Xususan, baholash borasidagi muammolar baholash jarayonlarining murakkab tuzilishi, ko'p sonli omillarni hisobga olish va tahlil qilish zarurligi, baholash jarayonlarining tarqoqligi, baholanuvchi obyektlarning ko'pligi va ularning faoliyati ko'p qirrali ekanligi bilan bog'liq. Shuningdek, baholash uchun ishonchli ma'lumot to'plash muammosi baholash natijalari bo'yicha noto'g'ri xulosalarga sabab bo'lishi, tashqi omillarning ta'siri, turli organlar o'rtasidagi faoliyatning yetarli darajada muvofiqlashmaganligi, "Qo'shib yozish", "Natijalarni o'zgartirish", "Tanish-bilishchilik" holatlari bo'lishi mumkinligi ham baholash jarayonlarning murakkabligini anglatadi. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini baholash borasidagi muammolardan yana biri bu ularning faoliyatini baholash mezonlari va metodikasining barqaror emasligi bilan bog'liq.

Shuningdek, baholash jarayonlarining to'g'ri tashkil etilmasligi, davlat hokimiyati organlarining turli subyektlari o'rtasidagi yaqin munosabatlar tufayli bir-biriga nisbatan fikr bildirishda boshqasiga real baho bermasligi mumkin.

Rag'batlantirish yoki intizomiy choralar ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki Mehnat kodeksi rag'batlantirish yoki intizomiy choralar qo'llashda asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar zamonaviy davlat boshqaruvi, xususan, "Natijadorlikka qaratilgan boshqaruv"da baholash natijalariga asoslangan holda xodimni boshqa ishga o'tkazish, lavozimdan tushirish yoki lavozim bo'yicha o'stirish, rag'batlantirish, intizomiy choralar ko'rishga asos bo'layotganini ko'rsatadi. Yuqoridagilar kelajakda ushbu institutni tegishli kodeks va qonunlarda inobatga olish lozimligini ko'rsatadi.

Baholash samaradorligi ko'p jihatdan mezon, ko'rsatkich va metodikaning aniq ishlab chiqilishi, baholash tizimi davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan yagona mexanizm sifatida ishlashiga bog'liq. Umuman olganda, davlat organlari faoliyatini baholash tizimi nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan yaxshi o'rganilmagan ko'p qirrali masala hisoblanadi. Baholash tizimidan ko'zlangan maqsadlarga erishish ko'p jihatdan baholash tizimiga mas'ul organlar va xodimlarning tajribasiga bog'liq. O'rganishlar baholash tizimi muntazam ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qilishini ko'rsatadi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. *Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligi bu* – sarflangan resurslar va boshqaruv natijasining nisbati, kam resurslar bilan sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish, mavjud resurslardan maqsadga muvofiq foydalanish, yoki xuddi shu manbalar asosida xizmatlar sonini ko'paytirish, sifatini yaxshilash (tezlashtirish, qulayroq qilish) orqali samaradorlikni ta'minlashdir. Ayni paytda erishilgan natijalar maqsadga muvofiqlik talabiga javob berishi kerak. Maqsadga muvofiqlik belgilangan barcha normalarga rioya qilgan holda rejalashtirilgan miqdor, sifat va natijaga erishish bilan izohlanadi.

2. *Mezon bu* – obyekt yoki hodisani tavsiflash uchun asos, noaniqliklarni bartaraf etish, biror hodisa, jarayon yoki faoliyatga baho berish, uning holati yoxud xususiyatini aniqlash va tizimlashtirish orqali to'liq, asosli ma'lumot to'plash va qo'yilgan vazifaga oson, qulay, aniq yechim topish vositasi.

– ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining vazifasi – tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida ushbu organlarga yuklatilgan vazifalarni bir nechta aniq, mezonlarga aylantirish va ular asosida mazkur organlarning faoliyatiga har tomonlama va asosli baho berish hisoblanadi.

– ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining maqsadi – ushbu organlar faoliyatning natijasini, sifatini, miqdorini aniqlashdir. Mezonlar maqsadga muvofiqlik talabiga javob berishi kerak. Maqsadga

muvofiqlik baholash mezonlari baholanayotgan obyektning vazifalari, xususiyatlari hamda funksiyalariga mos bo'lishi bilan izohlanadi.

3. *Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash bu* – ushbu organlar faoliyatini belgilangan mezonlar va ko'rsatkichlar asosida kuzatib borish, tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish usuli bo'lib, ushbu organlar faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, muammolar va yutuqlar haqida tegishli xulosalar qilish, kamchiliklarni bartaraf etish va istiqbol yo'llarini tanlashdir.

– ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimining vazifasi – ushbu organlar faoliyatini takomillashtirishga, ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi samaradorligini yanada yaxshilashga, faoliyati natijadorligini ta'minlashga, ularning faoliyatini muntazam kuzatib borishga hamda mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini aniqlash hisoblanadi.

– baholashdan maqsad – ijro hokimiyati organlari faoliyatini samarali monitoring qilish, aniq ma'lumotlarga asoslangan holda ularning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish va boshqaruvni soddalashtirishga qaratilgan.

4. *Ko'rsatkich bu* – o'lchanadigan xususiyatga ega bo'lgan, obyekt holatining o'zgarishini kuzatib borishga mo'ljallangan va uni bevosita tadqiq yoki tahlil qilish imkonini beruvchi, ma'lum bir miqdor, qiymat yoki sifatni aniqlash uchun mo'ljallangan vosita.

– ko'rsatkichning vazifasi – ijro hokimiyati organlari faoliyati natijasiga oid statistik va boshqa ma'lumotlarni ko'rsatib berishdan iborat.

– ko'rsatkichning maqsadi – ijro hokimiyati organlari faoliyatiga oid ma'lumotlarni bir nechta aniq ko'rsatkichlarga aylantirish va ular asosida ushbu organlarning mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini ko'rsatib borishdan iborat.

5. *Metodika bu* – o'rganilayotgan obyektning mohiyatini aniqlashning umumnazariy talablar tizimi, bilishning muayyan usullari va talablari asosida obyektga tegishli ma'lumotlarni jamlash, ularni mantiqiy tahlil qilish, mohiyatini aniqlash va xulosa chiqarish vositasi.

– ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash metodikasining maqsadi – ushbu organlar faoliyati natijasini aniqlashga qaratilgan.

– metodikaning vazifasi – bilimni tajribaga tatbiq etish orqali natijalarni asoslash, faoliyatni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ilmiy asoslash va voqelikni aniqlash hisoblanadi.

6. *Ijro hokimiyati organlari rahbarlari va xodimlari faoliyatini baholash bu* – belgilangan muddatlarda ularning faoliyati natijasini aniqlash, umumlashtirish, tegishli xulosa qilish va faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan amaliyotdir.

– ijro hokimiyati organlari rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligini baholash tizimining vazifasi – ularning faoliyati samaradorligini ta'minlash, rasmiy faoliyatning barcha sohalarini hisobga olgan holda maqbul va adolatli haq to'lash tizimini joriy etishdan iborat.

– ijro hokimiyati organlari rahbarlari va xodimlari faoliyatini baholashdan maqsad – belgilangan vazifalar va kutilgan natijalarga erishilayotganini kuzatib borish, faoliyat sohalariga tegishli tuzatishlar kiritish, muvaffaqiyatga erishgan rahbarlar va xodimlarni rag‘batlantirish, kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan holatlarga tegishli choralarni ko‘rish, sohaga tegishli budjet xarajatlarini aniq va maqsadga muvofiq yo‘naltirish va ularning faoliyati samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan.

II. Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashga oid tashkiliy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bob, 120-moddasini “Mahalliy davlat hokimiyati organlari joylardagi muammolarni hudud aholisi bilan kelishgan holda hal qilishi kafolatlanadi” – degan yangi norma bilan to‘ldirish joylardagi nizoli muammolarning samarali yechim topishiga xizmat qiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasini “Davlat fuqarolik xizmatchisi samarali faoliyat yuritishi shart” degan yangi norma bilan to‘ldirish davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 463-son Qarorining ikkinchi ilova, 2-bob, 9-bandiga: *maqsadga muvofiqlik – rejalashtirilgan miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga erishilgan natija uchun sarf etilgan resurslar o‘rtasida aniq bog‘liqlikni ta‘minlanish, ko‘rsatkichlarga belgilangan normalarga, muddatga, byudjetga rioya qilgan holda erishish;*

4. Amaldagi tartibga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlarda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholashda turli ball (foiz) taqsimoti belgilangan, misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 463-son Qarorida baholanuvchi rahbar faoliyatining samaradorligi natijasi hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbari o‘rinbosarlari faoliyatining samaradorligi natijasi:

70 balldan kam bo‘lganda	– “qoniqarsiz”
70 balldan 85 ballgacha	– “qoniqarli”
85 balldan 100 ballgacha	– “yaxshi”
100 ball va undan yuqori bo‘lganda	– “a‘lo” deb baholanishi belgilangan.
Ushbu normaga quyidagi tahrirda tuzatish kiritish taklif etiladi.	
56 foizdan kam ta‘minlanganda	– “qoniqarsiz”
56 foizdan 71 foizgacha	– “qoniqarli”
72 foizdan 85 foizgacha	– “yaxshi”
86 foizdan 100 foizgacha	– “a‘lo” deb baholanadi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2022-yil 28-dekabrda 3407-raqam bilan ro‘yxatga olingan buyrug‘ida baholanuvchi davlat fuqarolik xizmatchisining yig‘ma EMSK:

60 baldan kam bo‘lganda	– “qoniqarsiz”
60 baldan 80 balgacha	– “qoniqarli”
80 baldan 100 balgacha	– “yaxshi”
100 ball va undan yuqori bo‘lganda	– “a‘lo” deb baholanishi belgilangan.

Ushbu normaga qo‘yidagi tahrirda tuzatish kiritish taklif etiladi.

Baholanuvchi davlat fuqarolik xizmatchisining yig‘ma EMSK:

56 baldan kam bo‘lganda	– “qoniqarsiz”
56 baldan 71 balgacha	– “qoniqarli”
72 baldan 85 balgacha	– “yaxshi”
86 baldan 100 balgacha	– “a‘lo” deb baholanadi”.

Bitta tartib bo‘yicha minimal 60 ball (foiz), boshqasi bo‘yicha 70 ball (foiz) bo‘lganda amalda bir xil natijaga erishgan ikkita subyektdan biri, ya‘ni 70 ballik tartib asosida baholangan subyekt yaxshiroq natijaga erishgan bo‘lib ko‘rinishi, ayniqsa ikki xil ball (foiz) taqsimotida baholangan subyektlar taqqoslanganda bu qo‘shimcha murakkablik, noqulaylik va noaniqliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 532-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom”ning 77-bandida “Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash Qo‘mita raisi tomonidan tasdiqlangan Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan.

Subyektivliklarni oldini olish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom”ning 77-bandini “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilash lozim.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 295-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom”ning 29-bandida, “Qo‘mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Transport vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Qo‘mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom”ning 29-bandini “Qo‘mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o‘rinbosari bilan kelishilgan holda Transport vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Qo‘mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilash maqsadga muvofiq.

8. Zamonaviy davlat boshqaruvi davlat fuqarolik xizmatchilaridan davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini ta‘minlashga oid nazariya va amaliyotni kompleks egallashlarini talab qiladi.

Yuqoridagilarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida *“Davlat boshqaruvi organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini tadqiq etish markazi”* yoki *“Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini tadqiq etish markazi”*, – deb nomlangan Markaz tashkil etish maqsadga muvofiq.

Markaz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-oktyabrdagi PQ–4472-sonli Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida tashkil etilishiga rozilik berilgan “Davlat fuqarolik xizmatchilari malakasini oshirish markazi” negizida tashkil etilishi taklif etiladi.

Markazning asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilanishi maqsadga muvofiq.

– *davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini ta‘minlash borasida jahonning ilg‘or tajribalarini har tomonlama chuqur o‘rganib, O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini yanada takomillashtirish va samarali tashkil etish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqadi;*

– *davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini reyting baholash borasida jahonning ilg‘or tajribalarini har tomonlama chuqur o‘rganib, O‘zbekiston Respublikasida samarali joriy etish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlaydi;*

– *tinglovchilarga natijadorlikka qaratilgan boshqaruv, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini ta‘minlash va baholash faoliyatini tashkil etish amaliyoti bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida zamonaviy bilimlar beradi;*

– *davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash borasidagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha har tomonlama asoslantirilgan takliflar ishlab chiqadi;*

– *davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va metodikasini ishlab chiqish va ularning natijalarini tahlil qilish bo‘yicha takliflar berib boradi;*

– *boshqaruvda axborot texnologiyalari kafedrasini bilan hamkorlikda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha dasturiy ta‘minotlar ishlab chiqadi;*

– *davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini ta‘minlash borasida asoslantirilgan takliflar berib boradi.*

– *davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini ta‘minlash borasida asoslantirilgan takliflar berib boradi.*

– *davlat fuqarolik xizmatchilari kompetensiyasi va faoliyati samaradorligini baholash borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib boradi.*

– *davlat boshqaruvi organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash amaliyotini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar va amaliy tahlillar olib boradi;*

– davlat fuqarolik xizmatchilari uchun baholash amaliyoti, xususan baholash tartibi, baholash tizimining maqsadi, vazifalari bo'yicha seminarlar, davra suhbatlari, konferensiyalar, ilmiy amaliy mashg'ulotlar, treninglar tashkil etib boradi.

III. Huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar:

1. Ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi samarali bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun baholash jarayonlariga inson omili aralashuvini imkon qadar kamaytirish, ma'lumotlarni baholash tizimiga kiritish va hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish lozim. Baholash natijalariga o'zgartirish kiritish ehtimoli bo'lgan mas'ul xizmatchilarning bevosita baholash jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq faoliyatini kuzatish va nazorat qilishning samarali mexanizmini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

2. Baholashga asos bo'luvchi rasmiy statistik ma'lumotlarni qo'shimcha manbalar bilan mustahkamlash lozim. Misol uchun, baholanayotgan davlat organi rahbari imzosi bilan tasdiqlangan baholanayotgan davr (choraklik, yillik va boshqa) yuzasidan ma'lumotnoma, baholanayotgan organ faoliyatidan aholining qoniqish darajasini ko'rsatib beruvchi so'rov natijalari, vertikal va gorizontal boshqaruv bo'yicha faoliyat natijalari yuzasidan rasmiy ma'lumotlar, o'zini o'zi boshqarish organlari hamda aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalarini samarali birlashtirish va taqqoslash baholash natijalarining ishonchliligi hamda obyektivligini ta'minlaydi.

3. Davlat xizmatlaridan foydalanuvchilarning fikrlarini to'plashda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash so'rovi bilan SMS xabarlarini yuborish, davlat xizmatlarini taqdim etish joylarida o'rnatilgan elektron terminallar orqali so'rov, internetdagi maxsus manba orqali so'rov tizimini joriy etish va takomillashtirish lozim.

4. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholashda xodimlar soni, budjet xarajatlari (oylik maosh, saqlash xarajatlari va boshqa) ish hajmi va erishilgan natija o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni ta'minlashga erishish lozim.

5. Rahbar o'rinbosarlari faoliyatini baholash yakunlari bo'yicha rahbarga ham baho berish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Misol uchun, tuman (shahar) hokimining o'rinbosarlari tomonidan to'plangan umumiy balning o'rtacha qiymati va hudud aholisining hokim faoliyatidan qoniqish darajasi yuzasidan o'tkazilgan so'rov natijalari hokimning va ushbu hududning reytingini belgilab beradi. Bunda hudud aholisining qoniqish darajasi bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari umumiy to'planishi mumkin bo'lgan maksimal balning kamida 25 balini (foiz) tashkil etishi kerak.

6. Hududlarni baholashda davlat bo'ylab hududiy farqlarni hisobga olish, hududlarning rivojlanish darajasini, markazdan uzoqligi, tabiiy sharoit va imkoniyatlari, donor yoki dotatsiyaga muhtoj ekanligi hamda boshqa o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda farqlash maqsadga muvofiq.

7. Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholashda benchmarking metodini tatbiq etish natijalarni qiyosiy tahlil qilish, parallel davlat organlari faoliyatini taqqoslash hamda samarali faoliyat tajribasini ommalashtirishga yordam beradi.

8. Baholash huquqbuzarlik va jinoyatlarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, davlat boshqaruvida yangicha yondashuvlar huquqbuzarlik va jinoyatlarning yangi turlari yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari ham sohaga oid ilmiy yangiliklar va amaliyotdan chuqur xabardor bo'lishlari talab etiladi. Shu sababli baholash amaliyoti bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini ham o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

9. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash natijalariga asoslanib, ularni rag'batlantirish yoki intizomiy choralar ko'rish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, normalar belgilashda O'zbekiston Respublikasi "Mehnat kodeksi" hamda "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksda belgilangan tegishli normalarni inobatga olish, ushbu normalarga asoslanish lozim. Chunki ushbu kodekslar rag'batlantirish yoki intizomiy choralar qo'llashda asosiy hujjat hisoblanadi.

10. Baholash tizimi, tartibi, mezonlari va metodikasi doimiy takomillashtirib borishni talab qilishini, buning uchun alohida bilim, malaka, ko'nikma hamda tajriba lozimligini inobatga olib, ijro hokimiyati organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash bilan shug'ullanuvchi alohida organ tashkil etish maqsadga muvofiq. Yuqoridagilarga asosan, ijro hokimiyati organlari va xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi ishlarni samarali yo'lga qo'yish maqsadida:

1) "Davlat boshqaruvi organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash markazi" tashkil etish (Malayziya, Rossiya Federatsiyasi tajribasi);

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari hay'atlarining faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 855-sonli Qarori bilan tashkil etilgan Hay'atning funksiyasi va unga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, uning tarkibida (yoki negizida) "Davlat boshqaruvi organlari va xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash markazi" tashkil etish;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazida "Baholash markazi" tashkil etish (Qozog'iston Respublikasi tajribasi);

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "Davlat xizmatchilari faoliyatini monitoring qilish va baholash departamenti" faoliyatini takomillashtirish hisobiga baholash jarayonlarini samarali tashkil etish taklif etiladi.

11. Davlat boshqaruvi organlari, ijro hokimiyati organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini samarali tashkil etish, baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish uchun O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining amaliy grant loyihalari mablag'lari hisobidan:

– “O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi muammolar va ularning tashkiliy-huquqiy yechimlari”;

– “O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi muammolar va ularning tashkiliy-huquqiy yechimlari”;

– “O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash borasidagi muammolar va ularning tashkiliy-huquqiy yechimlari” mavzusida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda baholash amaliyotini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

12. Baholash tizimi ijro hokimiyati organlari faoliyatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga, ochiqlikni, shaffoflikni, samaradorlikni hamda ushbu organlar faoliyatini tashkil etish xarajatlarining aniqligini ta'minlashga, mehnat natijasiga asoslanib haq to'lash tizimini joriy etishga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnining muntazam yaxshilanib borishiga, asosiysi xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilsa baholash tizimdan ko‘zlangan maqsadlarga erishilgan hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АКАДЕМИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО
УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

УМИДУЛЛАЕВ КАХРАМОН УСМАНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ
ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ
ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**12.00.02 – Конституционное право. Административное право.
Финансовое и таможенное право**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент - 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан за номером № B2021.3.DSc/Yu175.

Диссертация выполнена в Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (e-mail: info@mgjxu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Ташкулов Джурабой Уринбоевич
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ахмедов Даврон Кувоневич
доктор юридических наук, профессор

Маликова Гульчехра Рихсходжаевна
доктор юридических наук, профессор

Исмаилова Гульноза Сайдиганиходжаевна
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

**Академия Министерства внутренних дел
Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (Адрес: 100109, Ташкентская область, Зангиатинский район, пос. Чорсу. Тел.: (+998971) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-50, e-mail: info@mgjxu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (Адрес: 100109, Ташкентская область, Зангиатинский район, пос. Чорсу. Тел.: (+998971) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-50

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(Протокол реестра № ___ от «___» _____ 2025 года).

М.Х. Рустамбаев

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ю.н., профессор

Ж.Д. Ахмедов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.ю.н

Ш.Х. Зулфикоров

Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.ю.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора юридических наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Обеспечение устойчивого развития государств в условиях кардинальных изменений, происходящих в мире, требует внедрения новых, перспективных и эффективных технологий в управление. Актуальной задачей является реформирование деятельности органов исполнительной власти, исходя из интересов граждан на основе передового международного опыта, превращение их в механизм, способный эффективно управлять процессами. Нынешний социальный, экономический и политический кризис, охвативший многие государства, ставит перед научным сообществом и практиками важные задачи, связанные с обеспечением эффективности деятельности органов государственного управления, в частности - органов исполнительной власти. Вопросы обеспечения эффективности деятельности органов исполнительной власти требуют современной, быстрой, действенной, гибкой системы изменений. В основе административных реформ лежит использование в эффективной организации деятельности органов государственного управления технологий управления частным сектором, таких как “управление, нацеленное на результативность”¹. Оценка деятельности органов исполнительной власти в рейтинговой системе на основе критериев имеет первостепенное значение для обеспечения эффективности их деятельности.

Практически во всех странах мира, где внедрена система оценки эффективности деятельности органов исполнительной власти, данная система оценки учеными и практиками является одной из важных тем комплексных исследований. В частности, существует большое количество объектов оценки и их функций, сложные структуры, необходимость учёта и анализа большого количества факторов, сложность обеспечения процессов оценки достоверными данными, которые могут привести к ошибочным выводам, сложность внедрения системы оценки, которая работает как единое целое, как единый механизм, полностью охватывающий все этапы процесса оценки². Тот факт, что система оценки служит эффективному решению задач, связанных с открытостью деятельности органов исполнительной власти, вопросов, связанных с государственной кадровой политикой, вознаграждением на основе достигнутых результатов, обеспечением всестороннего устойчивого развития страны, повышением качества жизни населения³, означает необходимость проведения глубоких научных исследований по оценке деятельности.

В настоящее время актуальным вопросом совершенствования системы государственного управления и обеспечения развития страны является оценка деятельности органов государственного управления, в частности органов исполнительной власти, выявление достигнутых результатов или

¹ <https://www.aihr>

² <https://www.uchicago.edu>

³ <https://www.law.wustl.edu>

причин допущенных недостатков и внедрение четкого порядка их устранения. В настоящее время в составе Кабинета Министров Республики Узбекистан 21 министерство, 12 комитетов, 26 агентств, 9 инспекций – итого в центральных аппаратах и территориальных подразделениях работают 53 560¹ управленческих кадров. Их эффективная деятельность служит обеспечению устойчивого развития.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в законах Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе», «Об административных процедурах», указах Президента Республики Узбекистан от 8 сентября 2017 года № УП-5185 «Об утверждении Концепции административной реформы в Республике Узбекистан», от 28 января 2022 года УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», от 13 марта 2024 года № УП-49 «О мерах по совершенствованию системы оценки эффективности деятельности республиканских и местных органов исполнительной власти, а также хозяйственных объединений», от 19 июля 2024 года № УП-91 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы работы с международными рейтингами и индексами и усилению парламентского контроля в данной сфере», а также в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 июля 2024 года № 463 «О мерах по организации оценки деятельности руководителей и их заместителей республиканских и местных органов исполнительной власти и хозяйственных объединений на основе важнейших показателей эффективности», от 04 октября 2024 года № 629 «Об организации Центра оценки руководящих кадров» а также в других нормативно-правовых актах сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации².

Научные и практические работы в области совершенствования законодательства в сфере оценки эффективности деятельности органов исполнительной власти, укрепления организационно-правовых основ ведутся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в частности в Washington University School of Law (США), The University of Chicago (США),

¹ <https://www.gov.uz/>

² Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: <https://www.harvard.edu>, www.law.stanford.edu, <https://www.bc.edu>, <https://law.ucla.edu>, <https://www.nyu.edu>, <https://www.uchicago.edu>, <https://www.law.wustl.edu>, <https://www.ox.ac.uk>, <https://www.ncl.ac.uk>, <https://commonslibrary.parliament.uk>, <https://www.cam.ac.uk>, <https://www.qmul.ac.uk>, <https://www.uni-frankfurt.de>, <https://www.lmu.de>, <https://www.pantheonsorbonne.fr>, <https://utoronto.ca>, <https://www.griffith.edu.au>, <https://en.uj.edu.pl>, <https://www.msal.ru>, <https://www.msu.ru>, <https://www.mgimo.ru>

New York University (США), Brunel University, University of Bristol, University of Leeds, House of Commons Library (Великобритания), Queen Mary University of London (Великобритания), Durham University, Birkbeck College (Великобритания), Université Toulouse (Франция), University of Leiden (Нидерланды), Law School, University of Queensland (Австралия), University of Toronto (Канада), Российской академии народного хозяйства и государственной службы при Президенте Российской Федерации, Московском государственном университете, Академии государственного управления при Президенте Республики Казахстан.

